

## **IJRO INTIZOMI – SAMARALI BOSHQARUV ASOSI**

Ijro intizomiga rioya qilish har bir boshlangan ishning muvaffaqiyatli amalga oshirishining asosiy garovi hisoblanadi. Shu munosabat bilan, “O‘zagroinspeksiya” tomonidan qonunchilik hujjatlari, Prezident va Hukumat qarorlari, farmon va farmoyishlari, shuningdek “Ijro.gov.uz” elektron tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash yuzasidan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10-fevraldagi PF-6166-son va 2025 yil 25 iyuldagi PF-117-son Farmonlari, shuningdek 2021 yil 31 maydagi PQ-5132-son qarori ijrosini ta’minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar asosida yo‘lga qo‘yilgan.

Ijro intizomi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar har haftaning dushanba kuni rahbar, juma kuni esa rahbar o‘rinbosari tomonidan muhokama qilinadi. Ushbu muhokamalar apparat yig‘ilishlari, kengaytirilgan yig‘ilishlar va rayosat yig‘ilishlari orqali rasmiylashtirilib, har bir topshiriqning ijrosi doimiy nazoratga olinadi.

### **Yanvar – sentyabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar:**

2025 yilning yanvar-sentyabr oylarida umumiy hisobda **580 ta hujjat** ro‘yxatga olindi. Shulardan:

- 68 ta – O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari,
- 86 ta – Prezident farmon va farmoyishlari,
- 142 ta – Prezident qarorlari,
- 284 ta – Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

Ushbu hujjatlar bo‘yicha mas’ul ijrochilar belgilanib, tarkibiy va hududiy bo‘linmalarga elektron tarzda yetkazildi. Har bir hujjat yuzasidan ijro nazorati ta’minlandi.

“Ijro.gov.uz” tizimi orqali kelib tushayotgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tahliliy axborotlar tayyorlanmoqda. Har oyda Kalendar-grafik jadvallari ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga tegishli axborotlar taqdim etilmoqda. Ayniqsa, Prezident farmonlari, qarorlari, farmoyishlari hamda Hukumat qarorlari qat’iy nazoratga olingan.

**Inspeksiyaga kelib tushgan barcha qonunchilik hujjatlari**, jumladan “Ijro.gov.uz” orqali kelganlari, doimiy ravishda tegishli tarkibiy tuzilmalarga yetkazilib, sohaga doir har bir hujjat uchun alohida ijrochilar tayinlanib, ijro jarayoni qat’iy nazorat ostida olib borilmoqda.

### **Qonunchilik hujjatlari ijrosi bo‘yicha raqamli ko‘rsatkichlar:**

2025 yilda, 1-oktyabr holatiga ko‘ra:

- **28 ta me'yoriy hujjat** (10 ta farmon, 9 ta qaror va 9 ta bayon) bo'yicha **124 ta topshiriq** kirim qilindi.
- Utgan yillardan ijroga o'tgan topshiriqlar bilan birga, jami **47 ta hujjat** bo'yicha **177 ta topshiriq** ijrosi ta'minlandi.
- Sentyabr oyida esa, **8 ta me'yoriy hujjat** bo'yicha **29 ta topshiriq** qabul qilinib, tegishli ijrochilarga yetkazildi.
- 2025 yil oktyabr oyida muddati tugayotgan **10 ta hujjat** bo'yicha **16 ta topshiriq**, shundan **7 ta alohida nazoratdagi topshiriqlar** yuzasidan "Kalendar-grafik" va "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, 25 oktyabrga qadar to'liq ijro etilishi belgilab olindi.

### **Prezident hujjatlari ijrosi**

"Ijro.gov.uz" tizimi orqali 2025 yil 1 oktyabr holatiga:

- **13 ta farmon, 21 ta qaror va 7 ta bayon** bo'yicha jami **125 ta topshiriq** qabul qilinib, ijrosi nazoratga olingan.

Bundan tashqari, Prezident Administratsiyasi rahbariyati, Vazirlar Mahkamasi va Hukumat komissiyalari tomonidan berilgan topshiriqlar ham qat'iy nazorat asosida ijro etib borilmoqda.

**A. Vaxabov**  
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi**  
**Agrosanoat majmuasi ustidan nazorat qilish**  
**inspeksiyasi boshlig'i**